Dastlabki ma'lumotlar

# 2020– yilning yanvar– iyun oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020– yilning yanvar– iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 9 179,9 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar– 9 091,7mlrd. so‘mni (103,4 %), o‘rmon xo‘jaligi– 75,3 mlrd. so‘mni (101,4 %), baliq xo‘jaligi – 12,9 mlrd. so‘mni (123,8 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.




**9 179,9** — Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **9 091,7** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **75,3** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **12,9** — Baliq xo‘jaligi

## Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʼati




## Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2020– yilning yanvar– iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 99,0 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar,0,8 % i – o‘rmon xo‘jaligi,0,2 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2020– yilning yanvar– iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (1659 mlrd. so‘m) va Jarqo‘rg‘on (873 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (36 mlrd. so‘m), Bandixon (335 mlrd. so‘m) va Qiziriq tumani (417 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,4 %) yuqori o‘sish sur’atlari Sariosiyo (113,8 %), Muzrabot (109,0 %), Jarqo‘rg‘on (108,4 %), Qumqo‘rg‘on (107,9 %), Termiz (107,7 %), Sherobod (105,1 %), Bandixon (104,2 %) va Denov (103,6 %) tumanlarida kuzatildi. Sho‘rchi (102,8 %), Oltinsoy (102,2 %), Boysun (102,1 %), Qiziriq (83,8 %), Angor (95,2 %) tumanlarida va Termiz shahrida (61,6 %) esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

# Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar– iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 9 066,5 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 4 881,3 mlrd. so‘mni (104,4 %), chorvachilik mahsulotlari– 4 185,2 mlrd. so‘mni (101,9 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 78,6 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 18,0 % i – fermer xo‘jaliklariga, 3,4 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2020-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Muzrabot tumanida (32,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Termizs hahrida (99,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Termiz tumanida (18,2 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Boysun va Uzun tumanlarida (7,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Muzrabot tumanida (64,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Angor va Boysun tumanlarida (0,1 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2020– yilning yanvar – iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4 881,3 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,8 % ni tashkil qildi.

## Don jami

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2020– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 602,1 ming t. don (2019– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 15,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 12,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 198,0 ming t. kartoshka (2019– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 98,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 527,1 ming t. sabzavot (2019– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 0,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 54,9 ming t. poliz (2019– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 98,7 %) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Mevalar

Hajmi, ming t.




O‘sish sur’ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi






2020– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 77,1 ming t. meva (2019– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 3,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 77,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha meva yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2020– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 12,6 ming t. uzum (2019– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 16,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 69,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2020– yilning yanvar – iyunoylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 4 185,2 mlrd. so‘mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,2 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 85,9 ming t. go‘sht (2019– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 1,3 % ga ko‘p), 404,6 ming t. sut (2,4 % ga ko‘p), 222,2 mln. dona tuxum (10,7 % ga ko‘p), 1523,0 t. jun (11,7 % ga ko‘p), 9,7 ming dona qorako‘l teri (1,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 1060,5 t. baliq (27,1 % ga ko‘p) ovlandi.

# <u>Go‘sht *(tirik vaznda)*</u>

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 85,9 ming t. go‘sht (2019– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 1,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 404,6 ming t. sut (2019– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 2,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 97,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2020– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 222,2 mln. dona tuxum (2019– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 10,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2020– yilning yanvar – iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1060,5 t. (2019– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 27,1 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 87,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2020– yining 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,0 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 17,0 % i fermer xo‘jaliklariga, 81,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi, otlar umumiy sonidan 26,3 % i fermer xo‘jaliklariga, 71,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 5,0 % i fermer xo‘jaliklariga, 58,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 36,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 903,4 ming boshga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 11,3 ming boshga (1,3 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar










Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni,

ming bosh



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 330,4 ming boshga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 4,3 ming boshga (1,3 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 94,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 345,3 ming boshga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 38,1 ming boshga (1,7 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 81,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 14 228 taga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 1053 taga (8,0 %) ko‘paydi.

## Otlar












2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 71,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 4 357,0 mingtaga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 513,2 mingtaga (89,5 %) kamaydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 58,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 76-225-65-78
- 76-223-06-98